

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**



**AKADEMIK LITSEYLARDA JAHON TARIXI FANIDAN  
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI**  
(Umumta‘lim fanlar)

**TOSHKENT – 2020**

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil 14-avgustdagi № 3-son majlis bayoni bilan ma’qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**Tarix fanidan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruh a‘zolari :**

<b>Baqoyeva Roziya Davlatovna</b>	NDPI akademik litseyi ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri tarix fani bosh o‘qituvchisi
<b>Tosheva Nodira Jo‘rayevna</b>	NDPI akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi
<b>Mirzayev Lutfullo Rashidovich</b>	NDPI akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi
<b>Xudoyberdiyev Ulug‘bek</b>	NDPI akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

<b>Saidov Sayum Sayidovich</b>	Pedagogika fanlari nomzodi, NavDPI dotsenti
<b>Narzullayev Umid Ortiqovich</b>	Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori doctori(PhD)
<b>Toshturov Shuhrat Eshonqulovich</b>	NavDPI katta o‘qituvchisi

## TUSHUNTIRISH XATI

Zamonaviy sharoitda geosiyosiy jarayonlarning rivojlanishi, inson ongi va qalbi uchun mafkuraviy kurashlarning avj olayotganligi ularga qarama-qarshi tura olish vositasi sifatida modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida o'sib kelayotgan avlodda tarixiy tafakkurni rivojlantirishni shart etib qo'ymoqda.

Yangi tarixiy davr ma'rifat, ma'rifatlilik davri sifatida vujudga kelmoqda. Istiqlol g'oyalari asosida bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat odamlar ongi va tafakkurida tub burilish yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o'tkazish yo'lini tanladi. Ana shu yo'l odamlarning o'tmishga, bugungi va kelajakka munosabatlarini o'zgartirish, muayyan manfaatlarga yondashish psixologiyasini aniqlash orqali asta-sekinlik bilan ularni ma'rifatli, komil inson qilib voyaga yetkazishga olib boradi. Fuqarolarning ma'rifatlilik orqali ma'rifatli jamiyat barpo etiladi.

Tarixiy tafakkur ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Zotan, o'tmishni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali kishilar ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar yasashga, bu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir-oqibatda esa jamiyatni ma'naviy isloh qilishga erishiladi.

### **«Tarix» fanini o'qitishning vazifalari:**

– eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha O'zbekiston va jahon tarixiga doir bilimlar bilan qurollantirish;

– O'zbekiston va jahon tarixini o'zaro qiyosiy o'rganish orqali milliy hamda umummadaniy kompetentlikni tarkib toptirish;

– tarixiy bilimlarni kundalik hayot, amaliyot bilan bog'liq tarzda yoritib berish;

– o'quvchilarda tarixiy voqelikni tahlil etish, umumlashtirish, baholash va xulosa chiqarish malakalarini rivojlantirish;

– tarixiy bilimlarning ijtimoiy mohiyatini chuqur ochib berish;

– ijtimoiy faol, tarixiy xotirasi mustahkam, tarixiy tafakkuri keng o'quvchi shaxsini shakllantirish.

### **O'quvchilarning o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:**

– o'tmish va bugungi kun o'rtasidagi aloqadorlikni izohlaydi;

– o'zini tarixiy voqelik ishtirokchisi sifatida idrok etadi;

– tarixiy voqelik inson faoliyati natijalari ekanligi, u moddiy va ma'naviy ko'rinishlarda namoyon bo'lishini anglaydi;

– insoniyat tomonidan amalga oshirilgan ishlarning bunyodkor yoki vayronkor kuchga ega ekanligini baholaydi;

– ajdodlar tomonidan amalga oshirilgan xayrli ishlarni davom ettiradi, ularga munosib bo'lishga erishadi;

– tarixiy voqelikning mohiyatini xolis talqin qiladi va mustaqil qaroq qabul qiladi.

I kursda «**Jahon tarixi**» fani I kurs I semestda haftasiga 2 soat, II semestrda 2 soatdan jami 72 soat, II kurs I semestda haftasiga 2 soat, II semestrda 0 soatdan jami 36 soat o'qitiladi.

**JAHON TARIXI (108. soat)**  
**I KURS JAHON TARIXI (72 SOAT)**  
**1-SMESTR (36 SOAT)**

**I BOB. 1918–1939-YILLARDA JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIIY  
IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI ( 36 SOAT).**

**1-mavzu: Kirish. 1918–1939-yillarda xalqaro munosabatlar. (2 soat).**

Birinchi jahon urushining xalqaro munosabatlarga va dunyo siyosiy xaritasiga ta'siri ta'siri. Parij tinchlik konferensiyasi. Millatlar ligasining tashkil topishi. Mandat tizimi. Vashington konferensiyasi. Versal-Vashington tizimining inqirozi va barbod bo'lishi.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**2-mavzu: Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilm-fandagi yutuqlar.**

Aniq va tabiiy fanlardagi inqilob. Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi. Ilm-fandagi yutuqlar. Ilmiy-texnika inqilobi. Yadro energiyasining olinishi va uning ahamiyati.

**Seminar ( 2 soat)**

**3-mavzu: 1918-1939-yillarda Buyuk Britaniya (2 soat).**

Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy harakatlar. Siyosiy hayot. Mustamlaka va dominionlar bilan munosabat. Tashqi siyosat. Angliyaning Ikkinchi jahon urushga kirishi.

**4-mavzu: 1918-1939-yillarda Fransiya (2 soat).**

Birinchi jahon urushining Fransiyaga ta'siri. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi. Ichki siyosat va ijtimoiy muammolar. Tashqi siyosat. Fransiyaning Ikkinchi jahon urushiga kirishi.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**5-mavzu: 1918-1939-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari. (2 soat).**

Birinchi jahon urushidan keyingi-yillarda mamlakatda iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy muammolar. AQSHlarning ichki va tashqi siyosati. Jahon iqtisodiy inqirozining AQSHga ta'siri. AQSHning Ikkinchi jahon urushiga kirishi.

**Seminar ( 2 soat)**

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**6-mavzu: 1918-1939-yillarda Germaniya .**

Germaniya inqilobi. Germaniya fashizmining o'ziga xos jihatlari. «Pivo isyoni». Fashizmning hokimiyatga kelishi, urush siyosati. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi.

**Seminar ( 2 soat)**

**7-mavzu: 1918-1939-yillarda SSSR (2 soat).**



Rossiyada fuqarolar urushi. Bolsheviklar hukumati va uning siyosati. SSSRning tashkil etilishi. Yangi iqtisodiy siyosat. Industrlashtirish, kollektivlashtirish va madaniy inqilob. Tashqi siyosat.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**8-9-mavzu: 1918-1939-yillarda Italiya , Ispaniya (2 soat).**

Birinchi jahon urushining Italiyaga ta'siri. Fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishi. Fashistlar siyosati. Italiyaning ikkinchi jahon urushga qo'shilishi. Birinchi jahon urushining Ispaniyaga ta'siri. Ispaniyaning ichki va tashqi siyosati. Ispaniyada fuqarolar urushi. Ispaniyada Franko diktaturasining o'rnatilishi. Ispaniyaning ikkinchi jahon urushiga kirishi.

**Seminar ( 2 soat)**

**10-mavzu: 1918-1939-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari (2 soat).**

Birinchi jahon urushining Lotin Amerikasiga ta'siri. 1920-yillarda mintaqadagi holat. 1930-yillarda Lotin Amerikasi. Iqtisodda davlat rolining oshishi. Lotin Amerikasi va AQSH munosabatlari.

**11-mavzu:1918-1939-yillarda Yaponiya. (2 soat).**

Birinchi jahon urushining Yaponiyaga ta'siri. Iqsodiy va siyosiy rivojlanishi. Yaponiyaning ichki va tashqi siyosati. Ijtimoiy-siyosiy harakatlar va militaristik kayfiyatning kuchayishi. Yaponiyaning Ikkinchi jahon urushiga kirishi.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**12-13-mavzu:1918-1939-yillarda Xitoy , Hindiston (2 soat).**

Birinchi jahon urushining Xitoyga ta'siri. Xitoyning ichki va tashqi siyosati. Birinchi jahon urushining Hindistonga ta'siri. Inglizlarning Hindistondagi siyosati. Ikkinchi jahon urushi arafasida Hindistonning iqtisodiy rivojlanishi.

**Seminar ( 2 soat)**

**14-mavzu:1918-1939-yillarda Turkiya (2 soat).**

Birinchi jahon urushidan keyin Turkiya ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti. Mamlakatlarning ichki va tashqi siyoati.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**15-mavzu:1918-1939-yillarda Eron..**

Birinchi jahon urushidan keyin Turkiya ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti. Mamlakatlarning ichki va tashqi siyoati

**Seminar ( 2 soat)**

**16-mavzu:1918-1939-yillarda Afrika mamlakatlari (2 soat).**

1918-1939-yillarda Afrika mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Afrika metropoliyalar siyosatining o'ziga xos tomonlari. Afrika xalqlarining siyosiy faollashuvi. Afrika mamlakatlarining Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**2-SMESTR (36 SOAT)**  
**II BOB. 1939–1991-YILLARDA JAHON MAMLAKATLARI**  
**IJTIMOIIYIQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI (36 SOAT)**

**1-mavzu: Ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari. Ikkinchi jahon urushidan keying xalqaro munosabatlar: «Sovuq urush»ning boshlanishi (2 soat).**

Germaniyada fashistlarning hokimiyatga kelishi va xalqaro munosabatlar. 1938-yilgi Myunxen kelishuvi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Germaniyaning SSSRga bositirib kirishi. Antigiter koalitsiyasining tuzilishi. Urushning borishi. Germaniyaning taslim bo'lishi. Yaponiyaning tor-mor qilinishi. Ikkinchi jahon urushining oqibatlar. Birlashgan Millatlar tashkilotining tuzilishi. Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari. ikkinchi jahon urushida engilishi. Birlashgan Millatlar tashkilotining tashkil topishi. Urushdan so'ng sovet-Amerika munosabatlari. Mustamlaka tizimining qulashi. 1970-1980-yillardagi xalqaro munosabatlar. Dunyoning kapitalistik va sotsialistik mamlakatlarga bo'linishi.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**2-mavzu: 1946-1991-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari (2 soat).**

Ikkinchi jahon urushining AQSh iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri. Mamlakatning ichki va tashqi siyosati. «Reyganomika». Sovet-Amerika munosabatlari. Jahonda liderlik uchun kurash.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**3-mavzu: 1946-1991-yillarda Sovet Ittifoqi (2 soat).**

Urushdan keyin SSSRda totalitar tuzumning kuchayishi. «Iliqlik» davri. Global inqiroz yo'lida: SSSR 1964-1985-yillarda. Qayta qurish. Tashqi siyosat.-avgust inqirozi. SSSRning tarqalib ketishi.

**Seminar ( 2 soat)**

**4-mavzu: 1946-1991-yillarda Buyuk Britaniya, Fransiya .(2 soat).**

Ikkinchi jahon urushining Buyuk Britaniya va Fransiyaga ta'siri. Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati. Buyuk Britaniya va Fransiyaning iqtisodiy-siyosiy ahvoli. Fransiyada To'rtinchi respublika. Beshinchi respublika. Fransiyaning tashqi siyosati.

**Seminar ( 2 soat)**

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**5-mavzu: 1946-1991-yillarda Germaniya va Italiya (2 soat)**

Germaniyaning ikki bo'linishi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasining xalqaro hamjamiyatdagi o'rni. Davlatlarning ichki va tashqi siyosati. Germaniyaning birlashuvi. Ikkinchi jahon urushining Italiyaga ta'siri. Italiyaning Yevropa iqtisodiy hamkorligidagi ishtiroki. Ichki va tashqi siyosat.

**Seminar ( 2 soat)**

**6-mavzu:1946-1991-yillarda Yaponiya va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari. (2 soat).**

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yaponiya. Yaponiyada demokratiyaning shakllanishi. Yaponiya iqtisodiy mo'jizasi. Postindustrial modelning shakllanishi. Osiyoning yangi industrial mamlakatlari.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**7-mavzu:1946-1991-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi (2 soat).**

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Xitoy.Fuqarolar urushi. Xitoy Xalq Respublikasining e'lon qilinishi. Yangi islohotlarning boshlanishi. Xitoyning tashqi siyosati.

**8-mavzu:1946-1991-yillarda Hindiston va Pokiston(2 soat).**

Hindiston va Pokistonning mustaqillikka erishishi. Hindistonning mustaqillikka erishgandan keyingi iqtisodiy rivojlanishi. Zamonaviy siyosiy tizimning shakllanishi. 1960-1970-yillardagi inqiroz. Hindistonning tashqi siyosati. Pokistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va ichki siyosati. Ikkinchi jahon urushidan keyin Eronning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. 1960-yillardagi islohotlar va ularning mohiyati.

**Seminar ( 2 soat)**

**9-mavzu:1946-1991-yillarda Turkiya .(2 soat).**

Urushning Turkiyaga ta'siri. Urushdan keyin Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, harbiy to'ntarishlar. Turkiyada T.Ozalning hokimiyatga kelishi va islohotlarning boshlanishi. S.Demirelning prezidentlik faoliyati. Tashqi siyosat.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**10-mavzu:1946-1991-yillarda Eron va Afg'oniston(2 soat).**

Ikkinchi jahon urushidan keyin Eronning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. 1960 -yillardagi islohotlar va ularning mohiyati. Erondagi inqilob va shoh rejimining ag'darib tashlanishi. Eronning iqtisodiy rivojlanishi. Eronning tashqi siyosati. 1980 -yilda Eron-Iroq urushining boshlanishi va uning oqibatlarini. 1980 -yillarda Eronning ichki va tashqi siyosati. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Afg'onistonning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti. Afg'oniston Demokratik respublikasining e'lon qilinishi. Fuqarolar urushi. Tashqi siyosat.

**Seminar ( 2 soat)**

**11-mavzu:1946-1991-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari(2 soat).**

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Lotin Amerikasi mamlakatlari. Kuba: modernizatsiyalashning inqilobiy varianti. Chili: modernizatsiyalashning neokonservativ varianti. Meksika: modernizatsiyalashning islohonchilik varianti.

**Mustaqil ish ( 2 soat )**

**12-mavzu:1946-1991-yillarda Afrika mamlakatlari(2 soat).**

Ikkinchi jahon urushi va uning oqibatlarini. «Afrika-yili». Afrika davlatlari muammolari. «Sovuq urush» sharoitida Afrika davlatlari. Afrika davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

**Seminar ( 2 soat)**

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**13-mavzu: XX asrning ikkinchi yarmida fan va madaniyatning rivojlanishi(2 soat).**

Ilmiy-texnik inqilob va uning natijalari. Ikkinchi jahon urushidan keyin tabiiy va aniq fanlar rivoji. XX asrning ikkinchi yarmida adabiyot va san'atning rivojlanishi. Yangi oqim va yo'nalishlar.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**II KURS JAHON TARIXI (36 SOAT)**

**1-SMESTR (36 SOAT)**

**I BOB. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA DUNYO MAMLAKATLARI (4 SOAT)**

**1-mavzu: XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar (2 soat).**

1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlarda yuz bergan tub o'zgarishlar. «Sovuq urush» va «ikki qutbli dunyo» modelining barham topishi. Xalqaro terrorizm muammosi. AQSh – Rossiya munosabatlari. Xalqaro munosabatlarda Xitoy va Hindiston davlatlari rolining oshib borishi. Afg'oniston, Iroq, Suriya, Ukraina muammolari.

**2-mavzu: Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi. Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e'lon qilinishi .**

SSSRdagi qayta qurish siyosatining sotsialistik mamlakatlarga ta'siri. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik tizimning parchalanishi. Polsha, Chexoslovakiyadagi inqilobiy jarayonlar. Yugoslaviya muammosi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari XX asr oxiri– XXI asr boshlarida. Postsotsialistik taraqqiyot muammolari. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining integratsiyalashuvi. Demokratik kuchlarning faollashuvi. Novo-Ogaryovo yig'ilishi va barqarorlashish jarayonining boshlanishi. 1991-yil-avgust inqirozi (GKChP). SSSRning tarqalishi. Sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e'lon qilinishi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ning tuzilishi.

**Seminar ( 2 soat)**



## **II BOB. 1991 – 2017-YILLARDA DUNYO MAMLAKATLARI (30 SOAT)**

### **3-mavzu:1991 – 2017-yillarda Rossiya Federatsiyasi (2 soat).**

Rossiya Federatsiyasida iqtisodiy islohotlarning og‘ir yo‘li. Boris Yelsin faoliyati. Jamiyatning siyosiy hayotida yuz bergan muhim o‘zga rishlar. 1993-yiloktyabr inqirozi. Millatlararo munosabatlar. Checheniston urushi. V.Putinning hokimiyatga kelishi, Rossiyada barqarorlashuv jarayonining boshlanishi. Rossiya XXI asrda. Tashqi siyosat.

### **4-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Ukraina, Belarusiya va Moldova respublikalari .**

1980-yillar oxiri – 1990-yillarda Ukrainada ijtimoiy-siyosiy hayotning faollashuvi va milliy-ozodlik harakatining kuchayishi. 1991-yil 1-dekabrda referendum va Ukraina mustaqilligining e‘lon qilinishi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari. Ukrainada davlat qurilishi va siyosiy jarayonlar. BSSRda mustaqillikning e‘lon qilinishi. Belarus Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Moldova Respublikasi mustaqilligining e‘lon qilinishi. Ruminiya bilan integratsiyalashish jarayonining boshlanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish muammolari.

#### **Seminar ( 2 soat)**

### **5-mavzu: 1991–2017-yillarda Boltiqbo‘yi davlatlari. Kavkazorti davlatlari (2 soat).**

Latviya, Litva va Estoniyaning mustaqillikka erishishi. Yevropada integratsiyalashuv jarayoni. Boltiq bo‘yi davlatlarining NATO (Shimoliy Atlantika bloki) va Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Rossiya bilan munosabatlardagi muammolar. Ozarbayjon, Gruziya va Armanistonda davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi. Ozarbayjondagi siyosiy jarayonlar va G.Alievning hokimiyatga kelishi. Ozarbayjonning iqtisodiy rivojlanishi. Tog‘li Qorabog‘ muammosi. Gruziyadagi siyosiy jarayonlar. E.Shevardnadzening hokimiyatga kelishi. M.Saakashvili islohotlari va uning Gruziya taraqqiyotidagi ahamiyati. Armanistondagi siyosiy jarayonlar. Diasporadagi vatandoshlar bilan munosabat. Tog‘li Qorabog‘ muammosi. Iqtisodiy o‘shish muammolari.

#### **Mustaqil ish ( 2 soat)**

### **6-mavzu: 1991–2017-yillarda Markaziy Osiyo davlatlari .**

Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘izistonda davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi. Qozog‘istondagi siyosiy va iqtisodiy islohotlar. Rossiya va Xitoy bilan munosabatlar. Turkmanistonda S.Niyozovning olib borgan siyosati. Mamlakatning demokratik rivojlanish muammolari. G.Berdimuhamedov va iqtisodiy rivojlanish muammolari. Tojikistondagi siyosiy jarayonlar. Mamlakatdagi fuqarolar urushi va uning oqibatlarini. I.Rahmonovning hokimiyatga kelishi va barqaror rivojlanishining boshlanishi. Qirg‘iziston Respublikasidagi siyosiy va inqilobiy jarayonlar. 2005-yilgi «Lolalar inqilobi», 2010-yilgi

«Atirgullar inqilobi». A.Atambaev faoliyati Qirg'izistonda barqarorlikning vujudga kelishi.

### **Seminar ( 2 soat)**

#### **7-mavzu. Yevropa Ittifoqi va AQSH munosabatlari (2 soat).**

Rivojlanish va hayot darajasining bir-biriga yaqinlashuvi. Qoloq mintaqalarni rivojlantirish umumevropa dasturlari. Yevroatlantika mamlakatlarida yagona iqtisodiy siyosat modelining shakllanib borishi. Yevropa Ittifoqining kengayishi. Maastrix kelishuvlari va «ichki chegaralarsiz makon»ning vujudga kelishi. Iqtisodiy muammolar. Qochoqlar muammosi va multikulturalizm siyosatining inqirozi. Breksit va Yevropa Ittifoqi kelajagi muammolari. Yevropa Ittifoqi va AQSH munosabatlari.

### **Mustaqil ish ( 2 soat)**

#### **8-mavzu: 1991–2017-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari (2 soat).**

R.Reygan va AQShda neokonservativizm tantanasi davri. J.Bush va «yangi xalqaro tartibni» o‘rnatish tashabbusi. «Reyganomika» siyosatidan voz kechish va B.Klintonning yangi «iqtisodiy falsafasi». «evroatlantik bozorni» yaratish rejasi. Kichik J.Bush davridagi moliyaviy inqiroz. B.Obama va D.Tramp davridagi etnik va siyosiy muammolar. AQShning tashqi siyosati.

### **Mustaqil ish ( 2 soat )**

#### **9-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Germaniya Federativ Respublikasi, Buyuk Britaniya, Fransiya (2 soat)**

GFR va GDRning birlashishi. 1990-yillarda Germaniya. Iqtisodiy va ijtimoiy muammolar. 1990-yillar oxiridagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar. Germaniya XXI asrda. A.Merkelning hokimiyatga kelishi. «Merkel davri». Qochoqlar muammosi. Ukraina muammosi va Rossiya bilan munosabatlar. Buyuk Britaniya XX asr oxirida. J.Meyjorning siyosiy kursi. 1990-yillar birinchi yarmidagi retsessiya davri. E.Blerning konstitutsion islohotlari. Buyuk Britaniya XXI asr boshlarida. 2008 – 2009-yillardagi moliyaviy inqiroz D.Kameron Buyuk Britaniyada multikulturalizm siyosatining barbod bo‘lishi. Breksit va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlar. XX asr oxirlarida Fransiya. F.Mitteran siyosati. Shengen kelishuvi. J.Shirakning Yevropa Ittifoqida etakchilik uchun kurash siyosati. Iqtisodiy rivojlanish. Fransiyada postindustrial axborot jamiyatining shakllanishi. XXI asr boshlarida Fransiya. N.Sarkazi va F.Oland davrida Fransiyaning rivojlanishi. Terrorizm muammosi. F.Makronning siyosiy kursi.

#### **10-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Italiya. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari (2 soat).**

Italiyada siyosiy beqarorlik korrupsiya muammolari. «Halol qo‘llar» kampaniyasi. Siyosiy beqarorlik va hukumat almashinuvlari. Italiya XXI asr boshlarida. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tishning boshlanishi. Iqtisodiy muammolar.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida rivojlanish muammolari. Modernizatsiyalashning murakkab yo‘li. Janubiy Osiyo mamlakatlarining o‘ziga xosligi. Islom dunyosi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida islom fundamentalizmi. Lotin Amerikasi: avtoritarizm va demokratiya orasida. Avtoritar rejimlar: modernizatsiya tajribasi.

**Seminar ( 2 soat)**

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**11-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (2 soat).**

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Xitoydagi islohotlar jarayoni. «Davlat sektorini modernizatsiya qilish dasturi». «Xitoy iqtisodiy mo‘jizasi». Xitoy Xalq Respublikasining xalqaro jamiyatda o‘rni. Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani havzasida etakchilik uchun kurash. Tashqi siyosat. AQSh va Rossiya bilan munosabatlar. XX asr oxirlarida Yaponiyada postindustrial iqtisodiy modelning shakllanishi. XXI asr boshlarida Yaponiya. Fukusima-1 atom elektrostansiyasidagi halokat va iqtisodiy rivojlanish muammolari. Yaponiyada postindustrial sivilizatsiya muammolari. Tashqi siyosat. Yaponiya – Xitoy va Yaponiya – AQSh munosabatlari. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Hindixitoy mamlakatlarining tinch taraqqiyot yo‘li. Vetnamda siyosiy va iqtisodiy islohotlar. «Qizil kxmerlar»dan keyin Kambodjaning siyosiy rivojlanishi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Sharqiy Osiyo mamlakatlari. M. Mahatxirva Malayziyadagi islohotlar. Suxarto va Indoneziyaning keyingi rivojlanishi. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi «yangi industrial davlatlar».

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**12-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Hindiston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Eron Islom Respublikasi (2 soat).**

1990-yillarda Hindiston. Narasimxa Rao hukumatining islohotlari. 1990-yillardagi iqtisodiy rivojlanish yutuqlari. A.B.Vajpai hukumati amalga oshirgan tadbirlar. Hindiston – Pokiston munosabatlari. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jadallashuvi. N.D.Modining islohotlar siyosati. Tashqi siyosat. Hindistonning BRIKSGa a'zo bo‘lishi. 1990-yillarda Turkiyadagi siyosiy jarayonlar. T.O‘zol va S.Demirelning islohotchilik siyosati. Mamlakatda islomchilarning faollashuvi. N.Erbakan. XXI asrda Turkiyaning siyosiy rivojlanishi muammolari. R.Erdog‘anning hokimiyatga kelishi va harbiylar bilan munosabat. Turkiyaning tashqi siyosati. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Rossiya bilan munosabatlar. 1990-yillari Eronda siyosiy va iqtisodiy hayotning barqarorlashuvi. Eronning jahon sport va madaniyat-maydoniga qaytishi. Eronning xalqaro terroristik tashkilotlarga munosabati. Eronning zamonaviy muammolari: ishsizlik va inflyasiya. Prezident Hasan Ruhoniy siyosati va Eronning jahon hamjamiyatiga qaytishi muammolari.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**13-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Pokiston, Afg‘oniston, Suriya va Iroq (2 soat) .**

1990-yillari Pokistonda hokimiyat almashinuvi, korrupsiya va qarindoshurug‘chilikda muammolari. 1999-yilgi harbiy to‘ntarish. P.Musharraf. N.Sharif siyosati. Pokistonning tashqi siyosati. Afg‘onistonda mujohidlarning hokimiyatga kelishi. Afg‘oniston Islom Respublikasining e‘lon qilinishi. Ben Laden va «Al Qoida» tashkilotining faollashuvi. Mujohidlar hukumatining o‘rta asrchilik siyosati. AQShning Afg‘onistondagi harbiy harakatlari. Mujohidlarning ag‘darilishi. Afg‘onistonning tinch rivojlanish muammolari. 1990-yillari Suriyada H.Asadning ichki va tashqi siyosati. Iroq – Quvayt urushi davrida Suriyaning tutgan pozitsiyasi. H.Asadning hokimiyatga kelishi. «Arab bahori»ning Suriyaga ta'siri. «Juma inqilobi». Urush harakatlarining boshlanishi. Terrorizm muammosi. AQSh va Rossiyaning Suriyadagi harakatlari. Iroqning Quvaytga bostirib kirishi. Quvaytni ozod qilish bo‘yicha «Sahrodagi bo‘ron» operatsiyasi. Iroqning AQSh tomonidan bombardimon qilinishi. S.Husaynning ag‘darilishi. Terrorizm muammosi.

**Seminar ( 2 soat)**

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

**14-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Isroil davlati va Falastin muammosi. Lotin Amerikasi mamlakatlari . ( 2 soat)**

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Isroil. Yaqin Sharq bo‘yicha 1991-yilgi Madrid xalqaro konferensiya. Falastin avtonomiyasini tuzish to‘g‘risida kelishuvga erishish. FATX bilan Isroil o‘rtasida muvaqqat kelishuv imzolanishi. 2000 -yili falastinliklar qo‘zg‘olonining boshlanishi. M.Abbos siyosati. Falastin davlatining xalqaro miqyosda tan olishnishi. Isroil–Falastin muammosining hozirgi holati. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Lotin amerikasi mamlakatlari. 1990-yillar boshlarida Argentinada rivojlanish yo‘nalishini keskin o‘zgartirishga urinish. D.Kavalo islohotlari va ularning oqibatlari. K.Kirshner islohotlari. Braziliyada F.Kardozu islohotlari. L. da Silva siyosati. D.Rusef prezidentligi, Braziliyadagi siyosiy mojarolar va iqtisodiy qiyinchiliklar. Meksikada modernizatsiyalashning islohotchilik varianti davom ettirilishi. Chili – modernizatsiyaning neokonservativ varianti. Lotin Amerikasi mamlakatlari XXI asrda.

**Seminar ( 2 soat)**

**15-mavzu: 1991 – 2017-yillarda Afrika mamlakatlari (2 soat).**

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Misr. G‘arbiy Misrda «Yangi vodi» loyihasi. Liviya M.Kaddafiy rejimi va uning ag‘darilishi. Islomchilarning faollashuvi. Afrika davlatlarining mustaqil rivojlanish muammolari. Afrika davlatlarida chegaraviy va etnik muammolar. Nelson Mandela faoliyati. Janubiy Afrika Respublikasida aparteid tuzumi va uning qulashi. Janubiy Afrika Respublikasidagi islohotlar va ularning natijalari. Tropik va Janubiy Afrika XX asr oxiri – XXI asr boshlarida. XXI asrda Afrika mamlakatlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muammolari.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

### III BOB. YANGI MING YILLIK JAHON SIVILIZATSIYASI MUAMMOLARI (2 SOAT)

**16-mavzu: XX asr oxiri – XXI asr boshlarida globallashuv muammolari, xavfsizlikka tahdidlar. Ilmiy-texnik taraqqiyot, adabiyot va san'at (2 soat)**

Umumiy globallashuv va xalqaro hamkorlik muammolari. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi globallashuv muammolari. Harbiy xavf-xatarlar. Ekstremizm va terrorizm muammolari. Tabiiy resurslar muammosi va biosferaning ifloslanishi. O'zbekistondagi ekologik muammolar. Insoniyatning global muammolari. Barqaror xavfsiz rivojlanish va xalqaro aloqalar. Tabiatni himoya qilish bo'yicha davlatlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlar. Atrof muhitni himoya qilish va taraqqiyot bo'yicha Rio-de-Janeyro konferensiyasi. Etno-ijtimoiy munosabatlar va ularga migratsion jarayonlarning ta'siri. Iqtisodiy tengsizlik muammolari. Irqchilik va irqiy kamsitilishga qarshi kurash. XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi etno-ijtimoiy muammolar. Ilmiy-texnik inqilob va uning natijalari. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida tabiiy fanlar va tibbiyot. Iqtisodiy nazariyalar va ularning taraqqiyotga ta'siri. Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar. San'atdagi yangi yo'nalishlar. Milliy madaniyatlar rivojlanishi muammolari. Adabiyot. XI asrda ommaviy madaniyat muammolari.

**Mustaqil ish ( 2 soat)**

#### JAHON TARIXI FANIDAN O'QUV REJASIDA AJRATILGAN SOAT MIQDORI VA MAVZULAR BO'YICHA TAQSIMOTI

№	FAN BO'LIMLARI VA MAVZULAR	Umumiy yuklama, soat						
		Dars turi bo'yicha soatlar taqsimoti						
		Umumiy	Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Seminar	Kurs ishi	Must. ish
	<b>1918-1991-yillarda jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti</b>							
1.	1918-1939-yillarda jahon mamlakatlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti.	50	36	24		12		14
2.	1939-1991-yillarda jahon mamlakatlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti.	52	36	24		12		16
	<b>XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo mamlakatlari</b>							
1.	XX asr oxiri-XXI asr boshlarida dunyo mamlakatlari	4	4	2		2		
2.	1991-2017-yillarda Dunyo mamlakatlari	44	30	20		10		14
3.	Yangi mingyillik jahon sivilizatsiyasi muammolari.	4	2					2
	<b>Jami:</b>	<b>154</b>	<b>108</b>	<b>72</b>		<b>36</b>		<b>46</b>

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. 6-sinf. Tarix. A.Sagdullayev, V.Kostetskiy.
2. 7-sinf. Jahon tarixi. T.O‘.Salimov, F.E.Sultonov. 2009
3. 8-sinf. Jahon tarixi. U.Jo‘rayev, R.Farmonov, Sh. Ergashyev. 2010.
4. 9-sinf. Jahon tarixi. M.Lafasov va b. 2010.
5. 10-sinf. Jahon tarixi. Sh.Ergashev, B.Xodjayeov, J.Abdullayev, 2017.
6. 11-sinf. Jahon tarixi. Sh.Ergashev, B.Xodjayeov, J.Abdullayev, 2018.
7. Jahon tarixi (eng yangi davr 1918-2010). Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. M.Lafasov, U.Jo‘rayev. 2011
8. Jahon tarixining muhim sanalari. Rajabov Q. va boshqalar. T.: 2014.

### **QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

9. Из истории мировой цивилизации (Под ред. Ш.М. Мунчаева). М. 1995.
10. Lafasov M. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. T. 1995.
11. Lafasov M. Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati.-T. 2008.
12. Nuridinov. E., Kichkirov., Lafasov M. Eng yangi tarix (1918-1945), «Nasaf», 2010.
13. Лурье Ф. М. Российская и мировая история в таблицах. СПб. 1995.
14. Кредер А.А. Новейшая история. XX век. М. 1996.
15. Всемирная история. С Древнейших времен до наших дней (Под ред. Г. Б. Поляка). М. 1997.
16. Алиева А.С. Всемирная история в таблицах и схемах. М. 1999.
17. Вейс Г. История цивилизации Т. 1-3 М. 1999.
18. Загладин Н.В. Всемирная история. XX век. М. 1999.
19. Ходжаев А. Х. Китайский фактор и Центральная Азия . Т. «Фан». 2004.
20. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar. T., «Akademiya», 2005.
21. Белоусов Л. С. История новейшего времени стран Европы и Америки. 1945-2000 гг. М. «Простор». 2003.
22. Родригес А. М. Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. М. «Владос». 2005.
23. Бузов В. И. История современного Востока XX-XXI вв. страны и правители (Новейшая история Азии и Африки). М. «Март». 2008.
24. Родригес А. М. Стран Азии Африки в новейшее время в вопросах и ответах. М. «Перспектив Велби». 2008.
25. Пономарёв М. В. История стран Европы и Америки в новейшее время в вопросах и ответах. М. «Перспектив Велби». 2008.
26. Всеобщая история государства и права. Учебник для Вузов в двух томах. Том 2. Новое время. Новейшая время. / Под редакцией В.А. Томцинова. М.: ИКД «Зерцало-М», 2013.
27. Голованов А.А. Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. Часть II. Самоотверженный труд во имя победы. – Самарканд, 2006.
28. Jahon mamlakatlari. Ma’lumotnoma. /tuzuvchilar: Sh.Ergashev, T.Bobomatov, N.Tursunov. – T.: 2013.
29. Jahon tarixining muhim sanalari. Q.Rajabov va boshqalar. T.: 2014



## **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www. edu.uz](http://www. edu.uz).
3. [www. kitob.uz](http://www. kitob.uz).
4. [www. mustaqillik.uz](http://www. mustaqillik.uz).
5. [www. ma'naviyat.uz](http://www. ma'naviyat.uz).
6. «Xalq so'zi» gazetasi – [www.infoxs.uz](http://www.infoxs.uz)
7. «Turkiston» gazetasi – [www.turkistonsarkor.uz](http://www.turkistonsarkor.uz)
8. «Ma'rifat» jurnali – [www.ma'rifat-inform.uz](http://www.ma'rifat-inform.uz)
9. «Jamiyat va boshqaruv» jurnali – [www.rzultacademy.freenet.uz](http://www.rzultacademy.freenet.uz)

ТО'ЛМА